

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA YARATILGAN O'QUV LUG'ATLARINING TA'LIM JARAYONIDA JORIY QILINISHI

**Sevara Raximova Abdurashidovna,**

Sherobod tumani 33 - umumta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi

O'zbekiston, Sherobod

E-mail: [rustamkhurramov@mail.ru](mailto:rustamkhurramov@mail.ru)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan o'quv lug'atlarining ta'lim jarayonida joriy qilinishi haqida gap boradi. Lug'at uchun so'zlik tanlash har qanday lug'atni tuzishda ham asosiy muammolardan biridir. O'quv lug'atidagi so'zlikning o'ziga xos belgisi eng zarur, eng muhim ma'lumotlarni qamrab olishi, aniq, qisqa, lo'nda bo'lishidir.

**Kalit so'zlar:** o'quv, ingliz va o'zbek tillari, lug'at, ta'lim, so'z, o'ziga xos belgi.

### Kirish (Introduction)

Lug'at uchun so'zlik tanlashning ommaviy uslubi nutqda eng ko'p qo'llanadigan so'zlarni qamrab olish mezonidir. Ammo keyingi tadqiqotlar so'zlik tanlashda, nafaqat eng ko'p qo'llanadigan so'zlarni qamrab olish, balki kam iste'molli, doimiy zahirada turuvchi so'zlarni ham chetda qoldirmaslik lozimligini ko'rsatmoqda. Tahlil biror badiiy asar ustida ketganda so'zlarning qo'llanish darajasiga tayanish yaxshi natija beradi. Biroq biror tilga mansub so'zlarni qo'llanish darajasiga ko'ra ro'yxatlashtirish unaqa samarador usul emas. Chunki tildagi so'zlar turli uslubiy qurshovlarda turlicha qo'llanish darajasiga ega bo'ladi. O'quv lug'atiga so'zlik tanlashda so'zlarning qo'llanish darajasiga tayanish mezonini takomillashtirilishi, boshqa mezonlar bilan qoplanishi umumiy va mukammal mezon bo'lishi uchun kamida quyidagi uch jihatni hisobga olishi lozim:

1. So'zlarning qo'llanish miqdori, darajasiga tayanish.
2. So'zlarning mavzuviy guruhlarini tanlash.
3. Lug'at turi bilan bog'liq maxsuslashgan so'zlarni tanlash.

Shuni aytib o'tish kerakki lug'atda so'z yig'ish mezonlarining hech biri barcha o'quv lug'atlari uchun birdek qolip bo'la olmaydi, lug'at mavzusi va maqsadidan kelib chiqqan holda muayyanlashtiriladi.

### Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

So'nggi yillarda shu yo'nalishda bajarilgan ishlarda o'quv lug'atchiligiga antroposentrik lug'atchilik, o'quv lug'atlariga esa antroposentrik lug'at sifatida qarash ommalashib borayotgani kuzatilmoqda. V.V.Morkovkin barcha lug'atlarni ikki guruhga bo'ladi:

1) Lingvosentrik lug'atlar – bu til uchun va til haqida bo'lgan lug'atlar. Asosiy vazifasi – mavjud til faktlarini yozish, tavsiflash va baholash.

2) Antroposentrik lug'atlar – inson uchun yaratilgan lug'atlar. Asosiy vazifasi – insonga yordam berish, birinchidan, inson ongida tilning manzarasini shakllantirish, ikkinchidan, uni ushbu tildan samarali foydalanishga o'rgatish[2]. Bu jihatdan V.V.Dubichinskiyning “O'quv lug'atchiligining tadqiq sohasini uch tizimga mansub bo'lgan uch koordinatali maydon – lingvistik, psixologik va sotsiologik mezonlarga asoslangan tizim sifatida belgilash mumkin” degan fikrlari o'rinli. O'quv lug'atlariga bunday yondashuv, haqiqatdan ham, uning antroposentrik lug'at ekani, insonni har tomonlama qamrab oluvchi vosita ekanini ko'rsatadi[7].

O'quv lug'ati ko'p hollarda maktab lug'ati ham deb yuritiladi. Maktab lug'ati o'quv lug'atining maktab o'quvchilariga mo'ljallangan bir ko'rinishi. Masalan, rus, ingliz tillarida uzluksiz ta'limning maktabgacha ta'lim tizimi uchun mo'ljallangan doshkolinii slovari, kindergarten dictionary, kids dictionary kabi turlari ham uchraydi.

O'quv lug'atining eng muhim xarakterli belgisi o'quv kompleksining to'laqonli a'zosi ekanligi, ta'lim jarayoniga maksimal darajada moslashgani. Darslik kabi o'quv lug'atining ham adresati (foydalanuvchisi) aniq bo'ladi.

O'quv lug'atida so'zlik foydalanuvchining uzluksiz ta'limning qaysi bo'g'inida tahsil olishidan kelib chiqib, shu bosqich o'quv dasturi, darslikda uchraydigan til birliklariga asoslanadi[8].

Bu toifaga mansub lug'atlarni xarakterlaydigan yana bir muhim belgi hajman chegaralanganligi. O'quv lug'atidan “zaruriy va yana faqat zaruriy ma'lumot”lar joy oladi. O'quv lug'atining muhim ko'rsatkichi – so'zlikning maqsadli tanlanishi va uning metodik jihatdan asoslangan miqdoriy cheklanishi bilan o'lchanadi.

O'quv lug'ati shu tipdagi katta lug'atni qisqartirish yo'li bilan yaratilmaydi. Shuningdek, estetik didga moslik, qo'shimcha materiallar (grammatik topshiriq, test, mashq, o'yin, she'r, elektron lug'atlar multimedia, ovoz) bilan boyitilishi ham o'quv lug'atining xarakterli belgisi hisoblanadi<sup>1</sup>.

O'quv lug'atchiligining oldiga qo'yilgan asosiy talablardan biri leksikamizning barcha bo'g'inlarini kerakli shakllarda tasvirlashdan iboratdir. Bunda asosiy e'tibor so'zlarning turli xil ma'noviy, sintagmatik va boshqa jihatlariga qaratiladi. So'zlarni o'rganish va yozishning turli aspektlariga bog'liq ravishda o'quv lug'atlarining quyidagi turlari yaratilishi mumkin:

1. So'zlarni to'g'ri yozish qoidalarini belgilaydigan lug'atlar – O'zbek tilining to'g'ri yozish o'quv lug'ati.

2. So'zlarning tuzilishi, yasaliş tizimini o'rganadigan lug'atlar - O'zbek tilining so'z yasaliş o'quv lug'ati.

<sup>1</sup> B.Baxriddinova.O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi:Lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari .Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand - 2020.

3. So'zlarning ishlatilish darajasini aniqlaydigan lug'atlar - O'zbek tilining chastotali o'quv lug'ati.
4. So'zlarning izohi, bosh va ko'chma ma'nosi, ma'nodoshlari, shakldoshlarini o'rganadigan lug'atlar - O'zbek tilining o'quv izohli lug'ati.
5. So'zlarning ma'noli qismlarini o'rganadigan grammatik lug'atlar - O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati.
6. So'zlarning tarixiy shakllarini o'rganadigan lug'atlar - O'zbek tilining eskirgan so'zlar o'quv lug'ati.
7. So'zlarning leksik-semantik guruhlarini o'rganish bilan bog'liq lug'atlar.  
O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati,  
O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati,  
O'zbek tilining shakldosh so'zlar o'quv lug'ati,  
O'zbek tilining talaffuzdosh so'zlar o'quv lug'ati,  
O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati,  
O'zbek tilining uyadosh so'zlar o'quv lug'ati,  
O'zbek tilining tur-jins munosabatidagi so'zlar o'quv lug'ati,  
O'zbek tilining butun-bo'lak munosabatidagi so'zlar o'quv lug'ati.
8. Iboralar, tasviriy ifodalarning izohiga bag'ishlangan lug'atlar - O'zbek tili barqaror birliklarining o'quv izohli lug'ati[9].
9. So'zlarning valentlik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan grammatik lug'atlar - O'zbek tilining so'zlar birikuvchanligi o'quv lug'ati.
10. Maktab fanlari terminlarini izohlashga qaratilgan mavzuviy terminologik lug'atlar – Matematika, fizika, geometriya terminlarining o'quv izohli lug'ati,  
Biologiya, botanika, zoologiya, kimyo terminlarining o'quv izohli lug'ati,  
Adabiyot, ona tili terminlarining o'quv izohli lug'ati,  
Tarix, jug'rofiya, jamiyatshunoslik, huquq terminlarining o'quv izohli lug'ati  
Aytib o'tish kerakki, bu lug'atlarning ko'pchiligi tilshunosligimizda yaratildi va yaratilmoqda; ba'zilari esa o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi[3].  
Leksikografiya nazariyasining vazifasi shundaki, lug'atning har bir turi ekstremal masalani yechish muhim leksik materialning maksimal darajasida lug'atdan ma'lumot olishga minimal vaqt sarflashdir.  
Lug'at tuzishda ma'lum bir talablar mavjud:  
1) lug'at adresati (o'quvchilar, talabalar va boshqalar);  
2) lug'at turi (bir tilli yoki tarjima);  
3) lug'at hajmi;  
4) poligrafik ko'rinishi (bolalarga mo'ljallangan lug'atlar yorqin rangli rasmlar bilan bo'lishi lozim.  
Har bir o'quv lug'ati formati bo'yicha qulay kitob shaklida bo'lishi kerak. ma'lumot topishda



tezlik va osonlik bu o'quv lug'atining yana bir belgisidir). Shunday qilib, lug'at bu so'zlar haqida ma'lumot bo'lgan asardir[10].

Bu lug'atning turidan qat'iy nazar uning belgisidir. Demak, lug'at statyasi lug'atning asosiy birligi hisoblanadi. Uning strukturasi so'zning mazmuniy strukturasi aks ettiradi, - deydi rus lug'atshunosi Denisov.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Bugungi kunda nafaqat ona tili ta'limi, balki ta'limning barcha tarmoqlarida lug'atlarga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Maktab lug'atlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish va ularni yaratish ona tili ta'limining dolzarb masalalaridan biriga aylandi. 2006-2009 yillar oralig'ida "Yangi asr avlodi" nashriyoti tomonidan yigirmaga yaqin mavzuviy o'quv lug'atlari sinov tariqasida nashr etildi[11]. Ba'zilarining ehtiyoj tufayli qayta nashr qilinishi ham yuqoridagi fikrni isbotlaydi. (Mengliyev B.M. Bahriddinova B.M. "O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati" 2007-2009.; O.Shukurov, B.Boymatova "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati" 2007-2009.; Mengliyev B.M. Bahriddinova B.M., Xoliyorov O'. "O'zbek tilining so'z yasalihi o'quv lug'ati" 2008.; To'rayeva U., Shodmonova D. "O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati" 2007-2009.; Islomov I. Bobojonov Sh. "O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati" 2007-2009.; Xamrayeva Y. "O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv lug'ati" 2007-2009.; Mengliyev B. Xudoyberdiyeva M. "O'zbek tili iboralari o'quv lug'ati" 2007-2009.; Nafasov T. Nafasova V. "O'zbek tilining o'quv toponimik lug'ati" 2007.; X.Suvonova G.Turdiyeva "O'zbek tilining shakldosh so'zlar o'quv lug'ati" 2007-2009.; X.Norxo'jayeva "O'zbek tilining eskirgan so'zlar o'quv lug'ati" 2006.; Nafasov T. Nafasova V. "O'zbek tilining talaffuzdosh so'zlar o'quv lug'ati" 2008 .va boshqalar.

Maktab ona tili darsliklarida o'quvchilarni tilimizning moddiy boyligi so'zlarning tarkibini tahlil etishga o'rgatish muhim masalalardan biridir. Har bir o'zbek maktabi o'quvchisi o'z ona tilidagi so'zlarni ma'noli bo'laklarga to'g'ri ajrata bilishi, o'zak va qo'shimchalarning birikish qonuniyatlari, tub, yasama, tublashgan, soddalashgan, tublashayotgan so'zlar haqida zaruriy ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim[12].

So'z asosi o'zak lisoniy sathda leksemaga teng kelib, uning lug'aviy ma'nosi, o'z yoki ko'chma ma'noda ekanligi, shakldoshlari, ma'nodoshlari, talaffuzdoshlari, o'z yoki o'zlashma qatlamga mansubligi, tarixiy yoki zamonaviyligini aniqlash o'quvchining so'z tarkibi tahlilida leksikologiyadan; o'zak va qo'shimcha qo'shiluvida yuz beradigan har xil fonetik jarayonlar fonetika, fonologiya, orfografiya, morfonologiyadan; qo'shimchalarning vazifasi, tuzilishi, shakldoshlari, ma'nodoshlarini aniqlash so'z yasalihi, morfemika, morfologiyadan zaruriy bilimlarga ega bo'lishini talab etadi[4].

Demak, o'zbek tilida so'z tarkibi, so'zning ma'noli qismlari deganda o'zak va qo'shimcha tushuniladi. Ammo morfema terminini, aytilganidek, so'zning barcha ma'noli qismlariga nisbatan

qo'llashga o'zbek tilining milliy tabiati to'sqinlik qiladi, shuning uchun tilimizda faqat qo'shimchaga nisbatan morfema terminini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Nutqimizda rus, arab, fors, shuningdek, yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar nihoyatda ko'p bo'lib, ularning ayrimlari o'zbek tilida ma'noli qismlarga ajralish imkoniyatiga ega bo'lsa (shaxs-iy-at, ma'mur-iyat, ma'naviy-at, fikr-an, shakl-an), aksariyati flektiv tabiatini to'la saqlagan (siyosat, falsafiy, artillerist, kooperativ, mifologiya, modifikatsiya, mexanizm, mexanik, mexanist, mexanizatsiya)[13].

O'zlashma so'zlarni morfemalarga ajratish biroz munozarali. Chunki, aslida yasama holicha kirib kelgan o'zlashma so'zlar tub so'z sifatida qabul qilinishi, tarkibidan morfema ajratilmasligi lozim. Ammo ularning ayrimlari tilimizda shunchalik keng qo'llanadiki, maktab o'quvchilari ularni o'z yoki o'zlashma ekanligini ilg'ay olmaydilar. Shu bois o'zlashma so'zlarning o'zak va qo'shimchalarini ajratish imkoni borlari, o'zbekcha affiks olib yasalganlari lug'atda ma'noli qismlarga ajratilib berilgan: medal-li, ma'mur-iy-at-chi-lik, ma'lum-ot, maskirovka-siz, ideal-lashtirish, aspirant-lik, adab-iy-ot, jism-an, moliya-viy, madaniy-at, mas'ul-iyat[14].

Tillarni kuzatishdan ma'lumki, morfologik ko'rsatkichlar yo mustaqil ma'noli leksemalardan, yoki har xil qo'shimchalarning o'zaro birikib yangi qo'shimcha hosil qilish usulidan shakllanadi. Ko'pgina so'zlar qo'shilib ketishi natijasida ikkinchi qism morfemaga aylanib ketishi mumkin: gapir (gap ur), tupir (tuf ur), supur (suv ur), berkit (berk et), to'lat (to'la et), bo'shat (bo'sh et), yo'qot (yo'q et), yo'qol (yo'q o'l), aytoladi (ayta oladi), ketaver (keta ber), ketvormoq (ketib yubormoq), boryapti (borib yotibdi).

So'z tarkibi lug'ati o'rni bilan imlo lug'ati vazifasini ham o'tay oladi. Chunki so'zlarning tarkibiy tuzilishi haqida qat'iy bilimga ega bo'lish, o'zakka turli vazifadagi morfemalar qo'shilishi natijasida yuz beradigan fonetik o'zgarishlarni anglab olish, shubhasiz, yozuvdagi har xilliklarni bir shaklga keltirishga yordam beradi[15].

O'zakni ajrata bilish, so'z tarkibidagi tovush o'zgarishlarini fahmlash so'zni to'g'ri yozishga imkon beradi. Shu sababli so'z tarkibi o'quv lug'atida ayrim so'zlarning etimologiyasi, ya'ni kelib shiqishiga ishora qilib ketish lozim: anglashilmovchilik (ong-la-sh-il-ma-vchilik), sanoqsiz (son-a-q-siz), atoqli (ot-a-q-li) kabi.

Bugungi kunda soddalashish, tublashish, yaxlitlashish kasb etgan va bu jarayonni boshidan kechirayotgan o'zbecha so'zlar tarkibi tahlil qilinmaydi, ular bir o'zakka teng keladi: qizg'ish, qishloq, kungay, kunduzi, kurtak, yo'rg'a, yiring, qopqoq[5].

Tarkibida egalik, kelishik shakllari yaxlitlangan ayrim ravishlar, modal so'zlar ham ma'noli qismlarga ajralmaganligi bois tarkibi tahlil etilmaydi: kunda, birga, birdan, yaqinda, kechasi, kunduzi, to'satdan, zimdan, qo'qqisdan, haqiqatdan, chamasi, aftidan, afsuski...

Har bir so'zning ma'noli bo'laklarga ajratilishi undagi qismlarning hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zaro munosabatga kirisha olish xususiyatiga asoslanadi. So'zning tarkibini ajratishda, avvalo o'zak ajratilib, uning lug'aviy ma'nosi aniqlanadi. O'zakka qaysi qo'shimcha turi qo'shilmasin,

u har doim o'zakdagi ma'no bilan aloqador bo'ladi va yangi so'z yasalganda ham o'zakning ma'nosi saqlanib qoladi. Masalan, suvoqchilik so'zining tarkibi suva+q+chi+lik. Ushbu kasb-hunar bilan bog'liq soha otining o'zakdagi suvash harakati bilan aloqasi uzilmagan.

Yuqorida aytilganidek, qo'shimchalar serqirra mohiyat kasb etib, turli belgilariga ko'ra turli guruhlariga mansub bo'ladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Lug'at unga kiritilgan lug'aviy birliklar va ularga tuzilgan lug'at maqolalaridan tashkil topgan.

Lug'aviy birlik deganda, odatda, lug'atga kiritilgan va lug'at maqolasi tuziladigan so'z (bosh so'z) tushuniladi. Lekin bu terminni kengroq ma'noda, ya'ni izohli lugatda ma'nosi (ma'nolari) belgilanib, unga (ularga) izoh beriladigan — lug'at maqolasi tuziladigan birlik ma'nosida tushunish to'g'ri va maqbuldir. SHunday tushunilganda, faqat lug'atga kiritilgan so'zlarnigina emas, yordamchi so'zlar bilan hosil qilingan (ajratib yoziladigan) tasdiq kilmok kabi yasama so'zlarni, shuningdek, bosh so'z ishtirokida yuzaga kelgan turg'un birikmalarni (mae. bosh so'zi ishtirok etgan boshi osmonga yetdi, boshi kotdi kabi iboralarni) ham lug'aviy birlik (izohlanuvchi birlik) deb qarash o'rinli bo'ladi.

Lug'atga kiritilgan so'zlar alifbo tartibida beriladi va ular, odatda, lug'atning so'zligi deb qaraladi. Bu noto'g'ri emas. Lekin masalaga (hodisaga) yuqoridagi kabi kengroq ma'noda qaralgan taqdirda, faqat lug'atga kiritilgan so'zlarga emas, balki lug'atga kiritilgan va ma'nolari belgilanib, izoh bilan ta'minlanuvchi ajratib yoziladigan yasama so'z va turg'un birikmalar ham lug'atning so'zligini tashkil etadi. Lekin ular, ma'lum printsip asosida, bosh so'zga tuzilgan lug'at maqolasi ichida beriladi.

Bosh so'z. Lug'at so'zligidan o'rin olgan har bir so'z bosh so'z deyiladi. Quyidagi so'z va so'z shakllari lug'atga kiritildi, ya'ni bosh so'z sifatida berildi:

Umumiste'moldagi so'zlardan: 1. Hozirgi uzbek tilida umumiste'molda bo'lgan, adabiy tilga oid mustaqil (tub va yasama) so'zlar, yordamchi so'zlar, undov va taqlid so'zlar, shuningdek, modal so'zlar[6].

So'zning o'z vazifa va ma'nosidan tashqari lug'aviy ma'no ham kasb etgan shakli. Qushdek, qip-qizil, o'quvchi so'z shakllari "engil", "g'irt", "o'taketgan", "talaba" ma'nosiga ham egaligi tufayli bosh so'z sifatida beriladi.

Fe'lning nisbat shakllarini kiritish-kiritmaslikda ham shu yo'l tutiladi, ya'ni nisbat shakli nisbat ma'nosidan tashqari lug'aviy ma'noga ham ega bo'lsa, lug'atga kiritildi.

Bir yoki har ikkala qismi mustaqil qo'llanmaydigan juft va takroriy so'zlar: bozor-o'char, ola-kula, adi-badi, lash-lush, o'lda-jo'lda, chaqma-chaqar, birdan-bir, lov-lov, mo'lt-mo'lt va sh.k. Lekin ikkinchi qismi fonetik o'zgarish bilan qo'llanuvchi (jamlik ifodalovchi) osh-posh, irim-sirim kabi juft so'zlar lug'atga kiritilmadi.



So'zning adabiy tilda parallel qo'llanuvchi adab-odob, kaptar-kabutar, nabira-nevara, ma'no-ma'ni kabi, shoir-shoira, muallim-muallima kabi jins bildiruvchi variantlari, shuningdek, bir so'zning tarixiy, badiiy va b. asarlarda qo'llanuvchi variantlari: birlan-birla, bila kabi.

CHegarlangan leksikadan: 1. Ko'pchilik qo'llaydigan va tushunadigan, darelik, ilmiy-ommabop asar va davriy matbuotda ko'p qo'llanadigan terminlar: iqtisod, ko'paytiruv, aktsiya, tola, emlash, shudgorlash va boshqalar.

Kasb-hunar leksikasidan ham ko'pchilik tushunadigan va qo'llaydigan charx, arra, tanda, randa, egov, iskana kabi so'zlar, shuningdek, kosib, duradgor, kuruvchi, kulol, pardozchi kabi kasb egasini bildiruvchi so'zlar va ulardan yasalgan duradgorlik, hunarmandchilik, kulolchilik kabi soha nomini bildiruvchi so'zlar. Odsiy so'zlashuv nutqiga oid so'zlardan ko'pchilik qo'llaydigan, yozma nutqta ham ko'p uchraydigan biram, o'lguday, ketvorgan, shunaqangi, mullajiring kabilar, shuningdek, nutqning ma'lum bir turiga xos bo'lgan nanna, hachu (bolalar nutqiga xos); o'rgilay, qoqindiq (ayollar nutqiga xos) kabi so'zlar.

Shevaga oid so'zlardan: 1) adabiy tilda parallel qo'llanadigan karavot-so'ri-chorpoya kabi so'zlar; 2) adabiy tilga mansub bo'lmasa ham, ko'pchilik shevalarda qo'llanadigan va yozma manbalarda ham uchraydigan gurung, manglay, qo'noq kabi so'zlar; 3) adabiy tilda varianti bo'lmagan, ma'lum bir yoki birdan ortiq shevada qo'llanadigan yelvizak, yelvagay, archimoq, arna kabi so'zlar.

Tarixiy so'zlardan o'tmishni yoritish va tasvirlashga oid ishlarda qo'llanadigan xon, amir, qarol, chorakor, batrak, qozi, mirshab, omoch, chakirim kabi so'zlar.

Eskirgan so'zlardan o'z vaqtida keng iste'molda bo'lib, hozirda boshqa so'z bilan almashgan yoki ilmiy, badiiy asarlar va boshqa manbalarda qo'llanuvchi dorilfunun, kashshof, chag'ir, ilik, aylamoq kabi so'zlar.

Hozirgi tilda mustaqil holda deyarli qo'llanmaydigan, hatto butunlay iste'moldan chiqqan, lekin iste'molda bo'lgan maqol, matal va turg'un iboralar tarkibida, shuningdek, ma'lum bir so'z bilangina qo'llanuvchi nil (bo'yoqchining nilimi), bebiliska (bebiliska pul), chumak (chumak urmoq), barham (barham bermog), miq (miq etmaslik), ato (ato qilmoq) kabi so'zlar.

Diniy tushunchalarni bildiruvchi, og'zaki va yozma nutqda keng qo'llanadigan aqika, azon, ro'za, iyd, namoz, nikoh, fотиha, cherkov, buddizm, nasroniy kabi so'zlar.

Xalqlar nomlaridan: 1) ko'pchilikka ma'lum xalqlarni bildiruvchi o'zbeklar, turklar, inglizlar, nemislar, frantsuzlar, arablar, xitoylar kabi so'zlar; 2) tarixda ma'lum rol o'ynagan, shu tufayli nomi hozirgi yozma manbalarda uchraydigan xalq, qabila va sulolalarni bildiruvchi sug'dlar, saljukiylar, qoraxoniylar, xazarlar va sh. k.; 3) uzbek xalqi tarkibiga kiruvchi qabila va urug' nomlari: qarluqlar, qipchoqlar, mang'itlar, qirqlar, naimanlar kabi so'zlar xuddi shunday (ko'plik) shaklida lug'atga kiritildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Baxriddinova.O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi:Lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari .Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi avtoreferati. Samarqand - 2020.
2. Kadirova, D., & Sayfiddinovich, X. R. (2021). Ethnopedagogical Fundamentals of Development of Primary School Education in our Multinational People. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 1(6), 41-49.
3. Kodirova, D. N. (2020). CHARACTERISTICS OF WATER EXCHANGE IN THE PHASE OF WAX MATURATION OF VARIETIES. Theoretical & Applied Science, (11), 518-520.
4. Kushokov, S. Y. (2021). THE ROLE OF ZOROASTRIANISM IN THE ANCIENT STATE OF BACTRIA. World Bulletin of Social Sciences, 4(11), 69-72.
5. Rakhimov, B. S., & Yormatov, F. J. (2019). TOPONOMICAL ANALYSIS OF KHATAK AND DANPARAKENT VILLAGES. Ўтмишга назар журнали, 19(2).
6. Yusupovich, K. S. (2020). The Emergence Of Religious Views Is Exemplified By The Southern Regions. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(10), 143-145.
7. Yusupovich, K. S. (2021). Қадимий Дафн Маросимларидаги Анъана Жараёнлари Ўзбекистон Жануби Мисолида. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 1(6), 72-77.
8. Yusupovich, K. S. (2021). Қадимий Дафн Маросимларидаги Анъана Жараёнлари Ўзбекистон Жануби Мисолида. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 1(6), 72-77.
9. Абдумуратова, С. (2018). ВЛИЯНИЕ НА СОВРЕМЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ АЛИШЕРА НАВОЙИ. Гуманитарный трактат, (25), 96-98.
10. Абдумуратова, С.С. (2022). ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ И СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ. Академические исследования в области педагогических наук , 3 (1), 745-747.
11. Ёрматов, Ф. (2021). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА АҲОЛИНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯЛАШНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ ВА ХАЛҚИМИЗ ҲАЁТИДАГИ МУАММОЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДАГИ ЎЗГАРИШЛАР (2016-2021 ЙИЛЛАР). ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 4(11).
12. Ёрматов, Ф. Ж. (2010). Ўзбекистонда аҳолини ижтимоий ҳимоялаш тизими: ҳолати, шаклланиш жараёни, ривожланиш истиқболлари (1991-2010 йиллар. Жанубий вилоятлар мисолида) (Doctoral dissertation, Автореф. дис.... т. ф. н. Тошкент, Мирзо Улуғбек Номидаги Ўзбекистон Миллий университети, 2010, 30 б).



13. Ёрматов, Ф. Ж. (2019). МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИДА АҲОЛИНИНГ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯСИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (25).
14. Кушоев, С. (2021). Сополли ва Жарқўтон маданиятида дафн маросимлари. Общество и инновации, 5(11/S), 150-154.
15. Саидовна, А.С. (2022). Язык является главным приоритетом в обучении. ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ, 2 (2), 108-110.